XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 26-noyabr VII-15-132-5-71-K/25 Karmana tumani

Karmana tumanidagi geografik obyektlarga nom berish, ko‘chalarni toifalarga ajratish va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 27-avgustdagi 16-16/5568-sonli xati bilan yuborilgan Geografik obyektlarga nom berish va va ularni qayta nomlash to‘g‘risida takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish kommisiyasining ekspert xulosasi, shuningdek, mazkur komissiyaning 2025-yil 19-sentabrdagi 05-19-16028-sonli ekspert xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-, 6-, 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Karmana tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 27-avgustdagi 16-16/5568-sonli xati bilan yuborilgan Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish kommisiyasining ekspert xulosasi, shuningdek, mazkur komissiyaning 2025-yil 19-sentabrdagi 05-19-16028-sonli ekspert xulosasi ma’qullanganligi inobatga olinsin.
2. Karmana tumanidagi toifalarga ajratilgan, nomlangan va qayta nomlangan ko‘chalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Kadastrlar palatasi Karmana tuman filiali (S.Aliqulov) 15 (o‘n besh) kun muddatda xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining mazkur qarori bilan o‘zgartirilgan geografik obyektlarining nomlarini davlat reyestriga kiritish choralarini ko‘rsin.
4. Karmana tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (G`.Sodiqov), tuman statistika bo‘limi (A.Jo‘rayev), Kadastrlar palatasi Karmana tuman filiali (S.Aliqulov)ga tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkazish idoralari bilan

birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

5. Karmana tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Ikromov) yangi nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan hududlarda aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Karmana tuman bo‘limi bir oy muddatda hududlarda nomlari o‘zgargan geografik obektlarning nomini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish, belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalarga yozib, o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (J.Musayev), “Karmana ovozi” gazeta tahririyati (A.Jo‘rayev)ga, mazkur qaror rasman e’lon qilingandan so‘ng, “Karmana ovozi” gazetasida va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Jumayeva) zimmasiga yuklansin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiyada raislik qiluvchi **URALOV MAMASOLI RABBIMOVICH**

Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining
2025-yil 26-noyabrdagi
VII-15-132-5-71-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaning ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Ko‘cha	Paxtaobod MFY	E'tiqod-1	Xuroson	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	O‘zbekiston MFY	Hayot-1	Shonsharaf	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Ko‘cha	Degaron MFY	Nomsiz	G‘allakor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Berk ko‘cha	Degaron MFY	Nomsiz	G‘allakor berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Tor ko‘cha	Degaron MFY	Nomsiz	G‘allakor tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Ko‘cha	Degaron MFY	Nomsiz	Nurziyo	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

					ko‘rsatilgan.	
7.	Berk ko‘cha	Degaron MFY	Nomsiz	Nurziyo berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.